



*Nayira IBRAGIMOVA,*  
*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: nayira@inbox.ru*

*O'zDJTU professori, filologiya fanlari doktori D.Baxronova taqrizi asosida*

### LINGUISTIC ANALYSIS OF THE CONCEPTS "THINKING", "DISCOURSE" AND "TEXT"

Annotation

In contemporary linguistics, such concepts as "thinking", "discourse", "text" are in the area of intersection of various systems. Research and analysis of the relationship between them is essential. This article widely covers the origin, evolution, transformation and linguistic significance of the above mentioned concepts.

**Key words:** Thinking, discourse, text, transformation, dichotomy, intralinguistic, extralinguistic, synergy.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЙ «МЫШЛЕНИЕ», «ДИСКУРС» И «ТЕКСТ»

Аннотация

В современном языкознании такие понятия, как «мышление», «дискурс», «текст» находятся в области пересечения различных систем, и важно изучать и анализировать взаимосвязь между ними. В этой статье широко освещаются происхождение, эволюция, трансформация и языковое значение вышеупомянутых понятий.

**Ключевые слова:** Мышление, дискурс, текст, трансформация, дихотомия, интралингвистическое, экстралингвистическое, синергия.

### "TAFAKKUR", "DISKURS" VA "MATN" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya

Zamonaviy tilshunoslikda turli tizimlarning kesishish sohasida "tafakkur", "diskurs", "matn" kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish va tahlil qilish ahamiyatlidir. Ushbu maqolada yuqorida qayd etilgan tushunchalarning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, transformatsiyasi, hamda lingvistik ahamiyati keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tafakkur, diskurs, matn, transformatsiya, dioxotomiya, intralingvistik, ekstralingvistik, sinergiya.

**Kirish.** XX asr oxirida paydo bo'lgan "matn" va "diskurs" tushunchalarini asta-sekin differentsiyatsalash tendentsiyasi hozirgi zamon gumanitar fanlarida ham o'z rivojini topdi. Ta'kidlash lozimki, terminlar bir tekis emas, balki turli jadallik bilan rivojlanmoqda. "Diskurs" ko'proq tadqiq etilgan va evolyutsiyani boshidan kechirgan tushuncha bo'lsa, "matn" tushunchasining tahlili va va o'rganish darajasi "diskurs"ga nisbatan kam hamda, muhim o'zgarishlarsiz an'anaviy tarzda kechgan.

Tafakkur tushunchasi esa "matn" va "diskurs" tushunchalaridan avvalroq paydo bo'lib, dastlab falsafiy tushuncha sifatida ta'riflangan. Ilm-fanning turli tarmoqlari rivojlanishi bilan birga tafakkur tushunchasi boshqa fanlarning tadqiqot ob'ektiga aylana boshlagan. Jumladan, kognitiv tilshunoslik va psixologiyaning kontseptual tizimlarining kesishishi sohasida "til", "so'z", "nutq", "tafakkur", "ong" kabi tushunchalar mavjud. Bu tushunchalar kognitiv lingvistika va psixologiya fanlari uchun umumiy bo'libgina qolmay, balki shu fanlarning asosiy tushunchalari qatoriga kiradi. Tilning mohiyati, tabiati va vazifalari, til va tafakkurning, til va ongning o'zaro bog'liqligi, og'zaki va fikrlash jarayonlarining mohiyati va tabiati - bu birinchi navbatda kognitiv tilshunoslikda o'rganilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tafakkur arabcha fikr yuritish, fikrlash degan ma'nolarni anglatadi. Tafakkur – ob'ektiv voqeilikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati hisoblanadi [1].

Tafakkur falsafa, gnoseologiya, mantiq, psixologiya kabi fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, tafakkur tilshunoslikda ham keng o'rganiladi. Zero, til tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Tilshunoslikda, tafakkur verbal (og'zaki), nutqiy fikrlash jarayoni sifatida anglashiladi.

Rus olimi A.F. Kornienkoning fikricha, "tafakkur" va "ong" tushunchalarini to'laligicha tushunib yetmasdan, "til"

va "tafakkur" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etishning iloji yo'q [2].

Tafakkur murakkab va xamon to'liq tavsiflanmagan jarayonlardan biri bo'lib, lingvistik fanlar doirasida: lingvistik gnoseologiya, kognitivistika, psixolingvistika va boshqa shu kabi fanlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

V. Gumbolt til va tafakkurning uzviy bog'liqligini ta'kidlab shunday degan: "Fikrlash, so'zlashish va eshitish organlarining til bilan uzviy bog'liqligi inson tabiatining mohiyatiga ko'ra birlamchi va g'aroyib tuzilishi bilan ifodalanadi"; "Til tafakkurning majburiy shartidir..."; "Nutq - bu tilning tafakkur bilan ifodalanadigan shaklidir"[3].

Turli xil tafakkur turlari jurnalistik matnlarning har xil turlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotchilar tafakkur turiga qarab matnning quyidagi turlarini ajratadilar: mifologik, ishontiruvchi, pragmatik, gedonistik, ma'no ochuvchi va tarmoq matnlari.

"Matn" atamasi an'anaga ko'ra "diskurs" tushunchasi bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ammo ushbu tushunchalarning korrelyatsiyasini aniqlashda olimlar o'rtasida birdamlik yo'q. Tilshunoslikning turli yo'nalishlardagi tadqiqotlarida matn va diskurs turli pozitsiyalardan o'rganiladi. Unda matn diskursning elementi sifatida qaralib, diskurs esa kengroq hodisa deb qabul qilingan.

"Diskurs" va "matn" tushunchalarining yakuniy separatsiyasi (keskin ajralishi) XX asrning 70-80-yillarga to'g'ri keladi, hamda olimlarning taxmin qilishicha, ilmiy faoliyatning gumanitar yo'nalishlariga tegishli ko'p sonli tadqiqotlar paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi fonida antropomorfizmning kuchayib borayotganligi bilan izohlanadi. Aynan shu vaqtda, diskursga nisbatan lingvistika va adabiyotshunoslikning lingvistik, semantik, psixolingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, tarjima nazariyasi kabi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida qiziqish ortib

bordi. XXI asrda diskurs tushunchasi kompyuter lingvistikasi doirasida ham tadqiq qilina boshladi.

“Matn – diskurs minus nutq vaziyati, diskurs esa matn plyus nutq vaziyati” kabi maxsus formulalar ishlab chiqilgan[4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Diskursga ta’rif berishda 4 ta yondashuvni ajratib ko’rsatish mumkin: rasmiy, funktsional, vaziyatli (situativ), kognitiv.

Formal (strukturaviy-yo’naltirilgan) yondashuv diskursga ikki va undan ortiq gaplarning ma’no jihatdan korrelyatsiyasi sifatida qaraydi. Undagi bog’liqlik diskursning asosiy belgisi hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu talqinda diskurs superfrazali sintaktik birlik, murakkab sintaktik butunlik bo’lib, uning yahlitligi ma’lum konnektorlar tizimi bilan belgilanadi.

Funktsional nuqtai nazardan diskurs tilni qo’llashning har qanday shakli bilan bog’liq bo’lib, bu esa til funktsiyalari tahlili bilan bog’liq holda diskurs funktsiyalarini ham tahlil qilishni ko’zda tutadi. Vaziyatli yondashuv diskursni ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatdan ahamiyatli sharoitlar va vaziyatlar kontekstida talqin qilish bilan bog’liq. Bu yondashuv formal va funktsional yondashuvlarni birlashtiradi. Kognitiv yondashuv diskursni kognitiv hodisa, ya’ni bilim berish, undan foydalanish va yangi kognitiv aloqalarni o’rnatishga bevosita tegishli bo’lgan fenomen, sifatida talqin qiladi.

Diskurs tushunchasining xilma-xil talqinini hamda uni o’rganishga bo’lgan yondashuvlarni rossiyalik olim V.I. Karasik umumlashtirib, quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

1) diskurs tilning dinamik modeliga asoslangan kommunikatsiyaga tegishli (statik modeliga qarama-qarshi munosabatda);

2) kommunikativ vaziyatlarning o’zi psixologik, ijtimoiy, madaniy-tarixiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq qilinadi;

3) kommunikativ vaziyatlar kommunikatsiyadan (diskurs paydo bo’lishi) oldingi, bevosita kommunikatsiya paytidagi hamda kommunikatsiyadan keyingi (diskursni talqin qilish) bosqichlarini o’z ichiga oladi;

4) vujudga kelish va interpretatsiya (talqin qilish) hodisalari diskursni o’rganishning muhim jihatlari hisoblanadi [5].

Shunday qilib, diskurs muloqot vaziyatiga tegishli bo’lgan matn hisoblanadi. Diskursni tadqiq qilishda vaziyatlar, maqsadga yo’naltirilgan ijtimoiy harakat, ekstralingvistik omillar bilan shartlanganligi hamda bog’langan matnning shakli diskursning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** “Matn - diskurs” dixotomiyasi XX asrning ikkinchi yarmi lingvistikasi uchun ahamiyatli hisoblanib, ilm-fan rivojlanishi hamda bilimlar oshirish vektorini aks ettirib, bundan tashqari o’z ichki va tashqi dunyosini uning tarkibiy elementlari va jamiyatning binar oppozitsiyalari (ezgulik-yomonlik, do’st-dushman, kun-tun, erkak-ayol va boshqalar) orqali anglatotgan shaxsning kognitiv faoliyati xususiyatlarini o’rganishni o’z ichiga oladi.

Aynan intralingvistik, ichki lisoniy muhitga tegishli matn hamda intra- va ekstralingvistik komponentlarni o’zida mujassam etgan diskurs yuqorida ko’rsatilgan binar oppozitsiyalarni tashkil qiladi. Matn chuqur bog’liqlikka ega kommunikativ birliklar ketma-ketligi zanjiri shaklida amalga oshirilsa, diskurs hodisasi ham zanjir bo’lib, uning bo’g’inlariga lisoniy tilning kommunikativ birliklari hamda

kommunikatsiyaning nolisoniy tarkibiy qismlariga (nutq vaziyati, adresantlar, psixologik-ijtimoiy belgilar yig’indisi bilan retsipientlar, kommunikatsiya vositalari, xronotop va boshqalar) kiradi. Shu bilan birga matn intralingvistik fenomenining ekstralingvistik kommunikativ muhitga integratsiyasi, matnning ushbu muhitga o’zgartirish maqsadida ta’sir ko’rsatishga yo’naltirishi, ya’ni ichki lisoniy hodisaning tashqi muhit bilan bog’liqligi ko’zga tashlanadi.

“Matn” va “diskurs” kabi tushunchalarning rivojlanishida kuzatilayotgan bunday o’zaro ta’sir, o’zaro harakatda lingvistik tadqiqotlarning turli sohalariga bo’lgan diskursiv yondashuvning jadal ekspansiyasi va ortib borayotgan ziqzishini keltirib chiqaruvchi mazkur fenomenlarning sinergetik salohiyatining mavjudligini qayd etish mumkin.

Matn va diskurs sinerjiyasi olamni anglashning ikki usuliga o’xshaydi: G’arbiy Yevropa odamining fikrlash tarzi va madaniyatiga xos bo’lgan ob’ektni tizim bilan bog’liqligidan tashqari, alohida tadqiqot usuli sifatida tahlil qilish, hamda Sharq dunyoqarashi uchun xos bo’lgan tizimni uni tashkil qiluvchi elementlar yig’indisi, ular o’rtasidagi bog’liqliklar majmui sifatida tadqiq qilishga yo’naltirilgan sintez usullaridan iborat.

Matn va diskursni tadqiq qilishga yondashuv induksiya va deduktiv bilan bog’liq, chunki ayrim matnlarni o’rganishda olimlar bevosita til birlik doirasidan chiqib ketsalar, diskursni o’rganishda esa matnlar tahlil qilinadi. Madaniyat egalari duniyoni idrok qilishi matnlar va gipermatnlarda kodlanadi. Bunday ko’p yoqlama matnlar madaniyat kodini yetarli darajada ishonchli tarzda ochish imkonini beradi [6].

“Matn” va “diskurs” tushunchalari rivojlanishning sinergetik jihatini yoritishda, vietnamlik olim Chan Kim Baoning ishlanmalarini tilga olish joizdir. Ushbu olim matn va diskursni Sharqning falsafiy ta’limotlari doirasida tadqiq qilib, ularning interaktsiyasini in va yan energiyalar o’zaro ta’siri bilan solishtirgan. Bunda matn in, diskurs esa yan sifatida qaralgan. In va yan - matn va diskurs qarama-qarshi unsurlar sifatida o’zaro ta’sir qonuni ostida amalga oshirilib qarama-qarshiliklar birligini hosil qiladi. E’tiborli tomoni shuki, Chan Kim Bao tilni makrokoinot bilan solishtirganda, matn fraktal singari makrokoinotning butun salohiyatini aks ettirib, diqqat markazida tizim va inson omillari bo’lgan lingvistik modelning ikki ajralmas xususiyati hisoblanadi [7].

Bizning fikrimizcha, kuzatilayotgan tendentsiya ichki tizimli, intralingvistik nuqtai nazardan tilni kognitsiya va kommunikatsiya vositasi sifatida tadqiq qilish, shuningdek, kommunikativ vaziyat ishtirokchilarini bevosita hamda bilvosita muloqotini kiritishga yo’naltirilgan.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, til va tafakkur, matn va diskurs tushunchalarining kelib chiqishi, shakllanishi va o’rganilishi, ularning o’zaro bog’liqligini taqozo qiladi. Qayd etilganidek, tafakkur og’zaki va yozma nutq bilan chambarchas bog’liq. Zero, matn bu og’zaki nutqning qog’ozga tushgan shakli deb qabul qilingan. Bu esa o’z o’rnida tafakkurning matn bilan ham aloqadorligini ko’rsatadi. Biroq, bu xodisa to’liq tadqiq etimaganligi bois, tafakkurning matn va diskurs bilan bog’liqligini ko’rsatuvchi aniq nazariyalar mavjud emas. Matn va diskurs tushunchalari esa shubhasiz bog’liq bo’lib, bir birini keltirib chiqaruvchi, to’ldiruvchi elementlar deb atash mumkin. Bu tushunchalarning o’zaro bog’liqligi tilshunoslikda ko’plab tadqiqotlarda o’z ifodasini topgan.

#### ADABIYOTLAR

1. O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent, 2006-2008.
2. Корниенко Александр Федорович. “Соотношение понятий «Язык», «Мышление» и «Сознание» в психологии и когнитивной лингвистике” Вопросы когнитивной лингвистики, №. 3 (36), 2013, С. 5-15.
3. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 2000. – 400 с.

4. Одинцова И.В. К проблеме соотношения понятий «текст» и «дискурс» в лингвистике и лингводидактике // Вестник Костромского государственного университета. 2017. – № 2. – С. 121-125.
5. Карасик В.И. Лингвистика текста и анализ дискурса. Архангельск .
6. Волгоград: Перемена, 1994. 3-4 с.
7. Чан Ким Бао. Текст и дискурс (через призму иньян концепции). – Москва: Изд-во “Творчество”, 2000. – 180 с.
8. Ibragimova N.A. “Tilshunoslikda matn tushunchasining tadqiqi va tahlili”// .
9. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 12, 2022, pp. 1299-1304.
10. Vaxronova D.K. O‘zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi: filol.f.d.avtoREF. – Toshkent, 2022. – 73б. <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2022/05/O%CA%BBzbek-va-ispan-tillarida-olam-manzarasining-lingvokognitiv-kategoriyalanishi.pdf>.